

## TEKNOLOGIYA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

*Risqulova Zebo Vahobho'ja qizi*

*Sirdaryo viloyati Boyovut tumani*

*Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli  
Nabi G'aniyev nomidagi 3-umumiy o'rta maktabining  
texnologiya fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o'quvchi yoshlarda texnik ijodkorlikni shakllantirish mavzusi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Texnologiya fani, intellektual loyihalar, ijodkorlik, ratsionalizatorlik, ixtiro.

Texnologiya darslarida zamonaviy (innovatsion, pedagogik va axborot) texnologiyalarini qo'llashning asosiy bo'limlari «Texnologiya va dizayn», «Servis xizmati» hamda «Qishloq xo'jalik asoslari» yo'nalishlari berilgan. Siz ulardan birini to'liq o'rganasiz. Shuni e'tiborga olish kerakki, «Texnologiya va dizayn» yo'nalishi uchun darslikda «Elektrotexnika ishlari» hamda «Uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash» nomli boblar berilgan. Bu boblarni «Qishloq xo'jalik asoslari» yo'nalishlarini o'rganayotgan o'quvchilar ham o'rganadilar. Siz mashg'ulotlar va uyushtiriladigan sayohatlar davomida ko'plab sohalarga oid kasb-hunar turlari bilan tanishasiz. Kelajak hayotingizda shu kabi kasb-hunarlardan birini egallab, o'z sohasining mohir ustasi bo'lib yetishasiz. Bu bilan siz jamiyatimiz ravnaqi uchun o'z hissangizni qo'shasiz. Ta'lim sohasidagi ilmiy-pedagogik adabiyotlarda texnologiya, pedagogik texnologiya, texnologik yondoshuv, ta'limni texnologiyalastirish, texnologik tayyorgarlik haqida so'z yuritilib, ularga turlicha talqin va ta'riflar beriladi.

Ta'lim jarayonida metodlarning pedagogik mohiyati "Maktab voyaga yetayotgan avlod tafakkurini shakllantirish ustaxonasidir, agar kelajakni qo'ldan chiqarishni istamasang, maktabni qo'lda mustahkam degan edi fransuz yozuvchisi Anri Barbyus. Darhaqiqat, kelajagimiz davomchilari bo'lmish yosh avlodni har tomonlama mukammal etib tarbiyalash, ularga bilim berish, xaqiqiy fidoyilik va mustahkam iroda talab etadi. Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo'llanilayotgan metodlar samaradorligiga ham bog'liqdir. Ta'lim nazariyasida o'qitish (ta'lim) metodlari markaziy o'rin egallaydi. "Metod" yunoncha metodos so'z bo'lib, «yo'l», tatbiq qilish kabi ma'nolarni anglatadi. Ta'lim metodi ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlaridir. Bugungi kunda pedagogika sohasida yangi ilmiy yo'nalish - pedagogik innovatsiya va ta'lim jarayonini

yangilash g'oyalarning paydo bo'lishi natijasida o'qituvchining pedagogik faoliyatida ham yangi yo'nalish "o'qituvchining innovatsion faoliyati" tushunchasi paydo bo'ldi. Innovatsion texnologiyalarning assosiy negizi - bu o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun oldindan ta'lim jarayonini loyihalashdir. Texnologiya fanidan darslarni innovatsion pedagogic texnologiyalar asosida tashkil etishda grafikli organayzerlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'quvchilarni darslarda faol ishtirok etishini, talim mazmuniga oid o'rganilayotgan tushunchalarni, murakkablik darajalari turlicha bolgan mavzularni, fanlararo amalga oshirilayotgan aloqadorlik va o'zaro bog'liqlik o'rnatishni, tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash, topshiriqli muammolarni aniqlash, ularni hal etish va berilgan amaliy topshiriqlarni rejalashtirish, tafakkur qilish va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Grafikli organayzerlar (tashkil etuvchi) - fikriy jarayonlarni ko'rgazmali taqdim etish vositasi hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv rejasida texnologiya o'quv faniga 1-4 sinflarda haftasiga 1 soatdan, 5-7 sinflarda haftasiga 2 soatdan va 8-9 sinflarda haftasiga 1 soatdan, hammasi bo'lib 408 soat vaqt ajratiladi. O'quvchilarni mehnatga tayyorlash jarayonida kasb-hunarga yo'naltirishni yanada kuchaytirish, ularni badiiy mehnat yo'nalishlari, uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash, zamonaviy ishlab chiqarish asoslari, metall va metalmas hamda gazlamaga ishlov berish texnologiyasi, pazandachilik, xalq hunarmandchiligi asoslari, ro'zg'orshunoslik, elektrotexnika ishlar, kasb-hunarga yo'llash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallash ko'zda tutilgan. 5-7 sinflarda o'quvchilarning ijtimoiy-estetik didi va dunyoqarashini kengaytiradigan, oilaviy hayot va turmushda kerak bo'ladigan yuqorida ko'rsatilgan bo'limlar o'quvchilarda milliy madaniyat va an'analarga mehr-muhabbat uyg'otadi. 8-9 sinflarda xalq hunarmandchiligi texnologiyasi, ro'zg'orshunoslik asoslari, elektronika asoslari, kasb-hunarlariga yo'naltirish bo'limlari ta'lim oluvchilarning ijtimoiy dunyoqarashini kengaytiradi, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlarini ongli ravishda tanlashlariga ko'maklashadi. Umumta'lim maktablarida texnologiya fani yuqori bosqichlardagi ta'lim muassasalarida kasb-hunar ta'limi va tarbiyasini amalga oshirishning negizi bo'lib, uning mazmuni asosan quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. I-IV sinflar – keng ko'lamda ishlatiladigan turli xil oddiy materiallar (qog'oz, rangli qog'oz, karton turlari, poralon, penoplast, paxta va matolar qiyqimlari, plastilin, simlar va boshq.) bilan tanishtirish, buklash, qirqish, yelimlash, bichish, tikish, to'qish usullari orqali kichik hajmdagi o'yinchoqlar va oddiy buyumlar yasash, xalq hunarmandchiligi to'g'risida boshlang'ich tushunchalar berish, o'quvchilarni o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishga o'rgatish, uy-ro'zg'or buyumlarining kichraytirilgan nusxalarini (modellar, maketlar) tayyorlashni, buyumlarni yasash yo'llari, uslublari o'rganiladi. V-IX sinflarda uchta "Texnologiya va dizayn", "Servis xizmati" hamda "Umumlashgan (o'g'il va qiz bolalar)" yo'nalishlari bo'yicha tashkil etiladi va 5-7 sinflarda haftasiga 2 soat, 8-9 sinflarda 1 haftasiga 1 soatdan darslar o'qitiladi. Ushbu

har bir texnologiya fani yo'nalishlari xalq hunarmandchiligi texnologiyasi, ro'zg'orshunoslik asoslari, elektronika asoslari, kasb tanlashga yo'naltirish bilan yakunlanadi.

*Servis xizmati yo'nalishi.* Ushbu yo'nalish bo'yicha quyidagilarga ega bo'lish talab etiladi: - oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish oshpazchilik va qandolatchilik asoslari; oziq-ovqat mahsulotlarining inson hayotidagi roli, xususiyatlari, to'yimliliigi, turlari ovqatlanish me'yorlari va tartibi; taomlar turlari, milliy taomlar, oshxonalarining jihozlanishi, oziq-ovqat sanoati, sanitariya-gigiyena talablari hamda mehnat xavfsizligi qoidalari; - tikuvchilik asoslari, gazlamalarga ishlov berish, kiyimlar turlari va ahamiyati, bichish-tikish, to'qish, buyumlarni ta'mirlash, dizaynerlik ishlari, tikuv mashinalari, yigiruv-tikuv mashinalarining turlari, umumiy tuzilishi va ishlashi; - uy-ro'zg'or yuritish asoslari, uy-ro'zg'or jihozlari kabi qismlardan iborat bo'lib, quyidagi nazariy bilimlarni o'rgatishni nazarda tutadi: oziq-ovqat va yengil sanoat sohalarida keng tarkalgan kasblar, ularning tavsiflari, oila jamg'armasi hamda ularni sarflash, qizlar bolalar gigiyenasi. O'quvchilar quyidagi ko'nikma va malakalarni egallaydilar: oziq-ovqat mahsulotlarini yig'ish, tashish, saqlash hamda ularga dastlabki va asosiy ishlov berish; turli uy-ro'zg'or asboblarini ishlatish; turli taomlar tayyorlash; zamonaviy maishiy uy ro'zg'or texnika vositalarini ishlatish; kiyimlarni bichish, tikish, tuzatish, ta'mirlash.

*Xalq hunarmandchiligi asoslari:* o'quvchilarga yo'nalishlar bo'yicha xalq hunarmandchiligi texnologiyalari; hunarmandlarning bozor munosabatlari asosidagi faoliyatlari, uyushmalari va uning istiqbollari; hunarmandchilik bo'yicha ko'rgazma va tanlovlarni tashkil qilish va ishtirokchilarni tanlash qoidalari; hunarmandlar tomonidan eksport va ichki bozor uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar; xalq hunarmandchiligining tanlangan yo'nalishi bo'yicha zamonaviy dizayn talablari bilan uyg'unlashtirilgan mahsulot tayyorlash ish usullari; zamonaviy dizayn talablari bilan uyg'unlashtirilgan xalq hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlash ish usullariga oid bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

*Elektrotexnika ishlari:* o'quvchilar elektr montaj ishlarida ish o'rnini tashkil qilish; elektr o'tkazish simlarining turlari; elektr o'tkazgichlarni montaj qilish izolyasiyalash ishlari; elektr asboblari; maishiy elektr asboblarini elektr manbaiga ulash, ularning atrof-muhit va inson sog'ligiga ta'siri; elektr energiyasini tejimli ishlatish usullari; kavsharlash asosida elektr montaj ishlarini bajarish ish o'rnini tashkil qilish; kavsharlashda simlar, kavshar, flyuslar turlari; kavsharlash asosida elektr montaj ishlarini bajarish ish asboblari hamda ish usullari; elektr montaj ish asboblari turlari va ularda ishlash usullari; elektr bilan ishlovchi sodda uskuna va jihozlar tayyorlash; elektrotexnik hamda elektron uskunalarni ishlab chiqarish, ishlatish va ularga xizmat ko'rsatish, asboblarni elektr montaj qilish va ishga tushirishga tayyorlash hamda shu sohaga oid kasb-hunarlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar. Texnologiya fanini amalga oshirishning o'ziga xos asosiy shartlaridan biri – uning barcha bo'g'inlaridagi o'quv

jarayonini moddiy-texnikaviy, uslubiy-didaktik jihatdan hozirgi zamon talablari asosida majmuaviy ta'minlanishidadir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Muhidova, O. N. Methods and tools used in the teaching of technology to children // ISJ Theoretical & Applied Science, 04 (84), (2020), 957-960.
2. О.Н. Мухидова Компетентностный подход к развитию профессиональной деятельности учителя // Вестник науки и образования 97 (№ 19 (97).Часть 2), С 88-91
3. О.Н. Мухидова Электронное обучение в высшем образовании // Вестник магистратуры, 1-5 (100) 2020 С 43-44
4. Halimovna, K. S., Nurilloevna, M. O., Radzhabovna, K. D., Shavkatovna, R. G., Hamidovna The role of modern pedagogical technologies in the formation of students' communicative competence. // Religación. Revista De Ciencias Sociales Y Humanidades 4 No. 15 (2019): Special Issue May 261-265.
5. Uzokov O.Kh., Muhidova O.N. Factor determining the efficiency of innovative activities of a teacher // INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION. Vol. 2 No. 1 (2021), 81- 84